



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

SHARQ VA G'ARB PEDAGOGIKA TARIXIDAGI MA'NAVIY TARBIYA VA AXLOQIY QADRIYATLAR

Qodirova Nigora Farhodovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0005-9652-7417

Annotatsiya: Maqolada Sharq va G'arb pedagogikasi tarixida ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning shakllanish bosqichlari, ularning inson kamolotidagi o'rni hamda pedagogik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilingan. Sharq va G'arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari qiyosiy jihatdan yoritilib, Konfutsiy ta'limoti, qadimgi tarixiy yodgorliklar va Sharq uyg'onish davri allomalarining ta'limiy-axloqiy merosi ilmiy asosda tadqiq etilgan. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlarning shaxs tarbiyasi, jamiyat taraqqiyoti va zamonaviy pedagogik jarayonlardagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, Sharq pedagogikasi, G'arb pedagogikasi, Konfutsiy, pedagogik tafakkur, ma'naviy meros, komil inson, ta'lim-tarbiya, axloqiy kamolot.

Abstract: The article examines the formation of spiritual education and moral values in the history of Eastern and Western pedagogy, their role in human development, and their influence on the evolution of pedagogical thought. The moral concepts of Eastern and Western thinkers are comparatively analyzed, with particular attention paid to Confucian teachings, ancient historical sources, and the educational and ethical heritage of the Eastern Renaissance. Furthermore, the significance of spiritual values in personality development, social progress, and contemporary educational processes is highlighted.

Key words: spiritual education, moral values, Eastern pedagogy, Western pedagogy, Confucius, pedagogical thought, spiritual heritage, moral development, education, ethical upbringing.

Аннотация: В статье анализируются этапы формирования духовного воспитания и нравственных ценностей в истории восточной и западной педагогики, их роль в развитии личности и влияние на эволюцию педагогической мысли. На основе сравнительного подхода раскрываются нравственные взгляды мыслителей Востока и Запада, исследуются учение Конфуция, древние исторические памятники и духовно-нравственное наследие эпохи Восточного Возрождения. Особое внимание уделяется значению нравственных ценностей в воспитании личности, развитии общества и современных педагогических процессах.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственные ценности, восточная педагогика, западная педагогика, Конфуций, педагогическая мысль, духовное наследие, гармоничная личность, образование, нравственное развитие.

KIRISH

Sharqda ham, G'arbda ham ilk axloqiy fikrlar va qarashlar xalq og'zaki ijodi – maqollar, matallar, hikoyatlar, hikmatlar va rivoyatlarda namoyon bo'lgan, asrlar davomida ular og'izdan-og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Sharq va G'arbda qadim zamonlardan hozirgi kungacha etikaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan evde-monizm (eudaimonia – baxt-saodat, rohat-farog'at, farovonlik) va gedonizm (nedone – lazzatlanish, huzur, zavq) g'oyalari tahlili muhim o'rin tutgan. Etika kategoriyalari, tamoyillari va me'yorlari xususida Sharqda ham, G'arbda ham ko'plab asarlar bitilgan ^[9].

Ayrim jihatlariga ko'ra Sharq va G'arb odami, eng avvalo, axloqiy, ruhiy, ma'naviy qiyofasi o'zaro farqlanadigan odamdir. Sharq odamining tarbiya yo'li, dunyoni anglash tarzi va urf-odatlarini g'arblarnikiga o'xshamaydi. Sharqda ikki turli aql mavjudligi e'tirof qilingan. Birinchisi, aqli qul – ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, ilohiy quvvatning faol natijasidan iborat. Aqli juz – kichik aql, insonning moddiy hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli. Fazoviy aql va ilohiy hissiyotlarga yetishgan buyuk insonlarning tabiati, odam va olam mohiyatini anglash miqyosi Sharqda ham, G'arbda ham deyarli bir xil. Ammo bu xususiy hodisa. Umumiy hodisa boshqa: Sharq – nafsga dushman, G'arb – nafsga do'st ^[2, B.301-303].



Sharq va G'arb axloqiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish ularning xususiyatlari haqida ilmiy, adekvat xulosalar chiqarish imkonini beradi. Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning ta'limotining ta'siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig'ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, XXIV asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo'lmog'i darkor, degan e'tirofdan ham buni anglash mumkin ^[3, B.7].

Konfutsiyning o'z-o'zini anglash haqidagi "ramziy" fikrlari diqqatni jalb qiladi:

- daraxt – odamlarga muhabbat, mehribonlik bo'lib, bu odamiylikning boshlanishidir;
- temir – haqiqat, adolat bo'lib, inson yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishi lozimligini bildiradi;
- olov – udum, odatga sodiqlik, jumladan ota-onaga hurmat ko'rsatishni anglatadi;
- uv – poklik, sog'lom fikr, donolik, oqillik, o'z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'ziga chetdan qarash va baho bera olishni bildiradi;
- yer esa – saxovat, saxiylik ramzidir.

Konfutsiy fikriga ko'ra, tartib bo'lgan joyda tinchlik, barqarorlik, yuksak mas'uliyat va adolat qaror topadi; axloqi yuksak hukmdor o'z xalqini yuksak darajaga ko'tarishga harakat qiladi va buning uchun chora-tadbirlarni amalga oshiradi ^[9].

Konfutsiy oliyjanob inson masalasini ko'tarib chiqqan ilk faylasuf hisoblanadi. Mutafakkir ta'kidlagan bilimlar ham nazariy, ham amaliy jarayon bo'lib, unga muvofiq inson tomonidan axloqiy talablarning bajarilishi zarurligi asoslangan. Oliyjanob inson haqidagi tasavvur uch xil ko'rinishga ega: uzoqdan qaraganda u juda jiddiy ko'rinadi, yaqinlashgach – muloyim tuyiladi, gaplarini eshitganda esa cho'rtkesar bo'lib ko'rinadi. Oliyjanob inson dunyoviy ishlarni bir-biridan ajratib bajarmaydi, balki burchga ko'ra ish qiladi, u kiyim va yemakka emas, balki haq yo'lga intiladi. U qo'l ostida ishlash oson, lekin unga yoqish juda mushkul bo'lgan, insonlardan foydalanishda har bir shaxsning qobiliyatiga qarab odilona ish ko'radigan, qonun va intizomni mudom o'ylaydigan inson sifatida tasvirlanadi.

Konfutsiy talqinicha, oliyjanob inson quyidagi to'qqiz narsani o'ylashi kerak:

- 1) ko'rganini angladimi-yo'q;
- 2) eshitganini aniq eshitdimi-yo'q;
- 3) yuzidagi ifodasi yoqimlimi-yo'q;
- 4) tashqi qiyofasida ehtirom zohirmi-yo'q;
- 5) suhbatdagi so'zlari samimiymi-yo'q;
- 6) ishiga nisbatan tirishqoqmi-yo'q;
- 7) savol tug'ilganda so'rashi kerakmi-yo'q;
- 8) g'azabini sochish yomon oqibatlarga olib keladimi-yo'q;
- 9) erishish mumkin bo'lgan narsa adolatga muvofiq keladimi-yo'q ^[5, B.158-160].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Konfutsiy qarashlarining markazida jamiyatdagi tartib va axloqiy boshqaruv masalasi turadi. Faylasufning fikricha, insonlar hayotida tartib o'rnatilgan taqdirda tinchlik, barqarorlik, yuksak mas'uliyat va adolat qaror topadi. Bu g'oya nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kun jamiyatlari uchun ham dolzarbdir, chunki tartib va qonuniylik bo'lmagan muhitda adolat o'rnamaydi, barqarorlik izdan chiqadi va jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Konfutsiy hukmdorning shaxsiy fazilatlariga alohida urg'u beradi. Uning nazarida, axloqi yuksak hukmdor o'z xalqini kuch ishlatish yoki majburiyatchilik bilan emas, balki odilona qarorlar, adolatli boshqaruv va ma'naviy yetakchilik orqali yuksak darajaga ko'taradi. Bu jihat hukmdorni nafaqat siyosiy, balki ma'naviy lider sifatida tasvirlaydi hamda zamonaviy boshqaruv nazariyalarida ham muhim bo'lgan "liderlikda axloq" masalasi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Konfutsiy ta'limotining muhim qismini oliyjanob inson (junzi) konsepsiyasi tashkil etadi. Faylasuf bu tushunchani insonning shaxsiy kamoloti va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan bog'laydi. Oliyjanob inson tashqi ko'rinishda jiddiy, muloqotda muloyim, so'zda esa haqqoniy bo'lishi lozim; u nafsga berilmaydi, hashamatni maqsad qilmaydi, balki haqiqat yo'lidan yuradi va yomonlikka ham yaxshilik bilan javob beradi. Junzining boshqaruvdagi o'rni ham muhim: u qo'l ostida ishlaydiganlarga nisbatan adolatli va talabchan bo'lishi, insonlarni ularning qobiliyati va salohiyatiga qarab baholashi kerak – bu esa meritokratiya tamoyillarining qadimiy ildizlarini ko'rsatadi.



Umuman olganda, Konfutsiy ta'limotida shaxsiy axloqiy kamolot bilan jamiyatdagi boshqaruv tizimi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, bu g'oyalar zamonaviy falsafa, pedagogika, sotsiologiya va boshqaruv ilmlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, Urxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta o'rin tutganidan dalolat beradi ^[8, 12-b].

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Insoniyat tarixi davomida tarbiya, axloq va ma'naviyat tushunchalari jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib kelgan, shu bois eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklarning to'g'ridan-to'g'ri shakli bizgacha bevosita yetib kelmagan bo'lsa-da, ular bilvosita adabiy-tarixiy manbalarda aks ettirilgan.

Sharq va O'rta Osiyo xalqlarining tarbiyaviy qarashlari turli yozma yodgorliklar orqali saqlanib qolgan bo'lib, ular o'zida qadimgi insonlarning hayot tarzini, axloqiy qadriyatlarini, orzu-umid va qarashlarini mujassamlashtirgan. Jumladan, Strabonning "Geografiya"si, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"i, Gerodotning "Tarix"i, Urxun-Enasoy bitiklari – bularning barchasi ma'naviy madaniyat va tarbiya masalalarini tarixiy shakllanish jarayonida yoritib bergan muhim manbalardir. Bu yodgorliklarda moddiy va ma'naviy madaniyat o'zaro uyg'unlikda tasvirlanib, diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi, inson ongining rivojlanishi, ixtirolar va mehnat faoliyatining shakllanishi orqali insoniyatning axloqiy va tarbiyaviy qoidalarga bo'lgan ehtiyoji ko'rsatilgan. Tarixiy yodgorliklar – eposlar, afsonalar, rivoyatlar – nafaqat estetik badiiyatni, balki o'sha davr kishilarining ichki dunyosini, tushuncha va hissiyotlarini, shuningdek, tarbiya, axloq va jamiyatga bo'lgan munosabatini ham ifoda etadi.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan – tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtaqidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita tarkib topishiga turtki bo'lgan bo'lib, eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu lug'atit-turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan. "Devon" she'rlarida ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi ^[8, 16-b].

Yuqoridagi fikrlarni to'ldirgan holda aytish mumkinki, qadimgi ajdodlarimizning insoniy fazilatlarini qadrlashga bo'lgan yondashuvi faqatgina axloqiy-me'yoriy doirada emas, balki ularning kundalik turmush tarzida, ijtimoiy munosabatlarida va madaniy merosida ham chuqur aks etgan. Shu boisdan, qadimiy yodgorliklarda aks etgan tarbiyaviy g'oyalarni o'rganish nafaqat tarixiy qiziqish uchun, balki bugungi yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazish yo'lida ham muhim ahamiyatga ega.

Sharq uyg'onishi davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi edi. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid asarlarning asosiy o'zagi sanalgan bo'lib, ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Hibbat ul-haqoyiq", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jalolii", "Axloqi Nosiriy", "Axloqi Muhsiniy", "Mahbub ul-qulub" kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan muhim manbalar sifatida e'tirof etiladi.

Sharq uyg'onish davrida inson masalasi markaziy o'rinni egallagan bo'lib, mutafakkirlarning asosiy e'tibori insonning ma'naviy va axloqiy barkamolligiga qaratilgan. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari Sharq pedagogik tafakkurining shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Islomiy manbalar, xususan Qur'on va Hadisdagi pand-nasihatlarining ta'siri bu davr asarlarida yaqqol ko'rinadi: halollik, saxovat, mehr-oqibat, ilm izlash kabi fazilatlarining ta'limiy-axloqiy meros markaziga aylangani Sharqdagi ta'limni diniy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Biroq mavjud talqinlarda ba'zi masalalarga tanqidiy yondashuv ham zarur. Avvalo, o'sha davrda yaratilgan asarlarni sof pedagogik asar sifatida baholash bir qadar mubolag'ali bo'lib ko'rinadi, chunki ular asosan falsafiy,



axloqiy va badiiy yo'nalishdagi asarlar bo'lib, pedagogik qarashlar ularning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, XI asrda yozilgan "Qutadg'u bilig" bilan XV asrdagi "Mahbub ul-qulub"ni bir xil darajada ko'rib chiqish tarixiy aniqlikka to'g'ri kelmaydi, chunki ular turli davr va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yozilgan.

Ta'limiy tizim masalasida ham ko'plab jihatlar yetarli yoritilmagan. Aslida Sharqdagi madrasalar diniy bilim bilan bir qatorda matematika, mantiq, tibbiyot, falsafa kabi dunyoviy fanlarni ham o'rgatishda muhim o'rin tutgan – bu jihatni hisobga olmaslik Sharq ta'lim tizimining murakkab va serqirra tabiatini bir qadar soddalashtirib qo'yadi. Shuningdek, ta'limiy-axloqiy asarlar faqat Qur'on va Hadis ta'sirida shakllangandek talqin etilishi ham bir tomonlama yondashuv bo'lib, aslida ularda turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, forsiy adabiy an'analar va xalq donishmandligining kuchli ta'siri seziladi. Sharq uyg'onishini faqat o'z madaniy kontekstida ko'rib chiqish ham mavzuni chegaralab qo'yadi – uni Yevropa uyg'onishi bilan qiyosiy tahlil qilinsa, mavzu yanada boyiydi: Yevropada gumanizm va shaxs huquqlari masalasi markaziy o'rinda turgan bo'lsa, Sharqda axloqiy komillik, jamiyat oldidagi mas'uliyat va ma'naviy barkamollik asosiy e'tiborni tashkil etgan.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining qarashlari bugungi pedagogika uchun ham dolzarb saboqlar beradi. Ularning ta'limni insonni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi jarayon sifatida talqin qilishi zamonaviy "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" konsepsiyasi bilan, Qur'on va Hadis asosida shakllangan axloqiy qadriyatlarining ijtimoiy-pedagogik tamoyilga aylanishi esa bugungi "ijtimoiy-emotsional ta'lim" nazariyalari bilan uyg'unlashadi. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, mavzuni yanada chuqur va tizimli o'rganish, xususan ma'naviy tarbiyaning amaliy samaradorligini empirik yo'l bilan baholash zaruriyati mavjud. Shu maqsadda quyida ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan integratsion metodika va uning amaliy sinovi natijalari keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning birinchi bosqichida ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan integratsion metodika ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv o'zbekistonlik olimlar G.N. Qurbonova (2022), G. Said-nazarova (2021) va A. Abdullayeva (2020)larning ilmiy izlanishlariga tayangan holda yaratildi. Ularning tadqiqotlari ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlarni integratsiya qilish, ya'ni fanlararo bog'liqlik orqali axloqiy tarbiyani shakllantirishning ilmiy asoslarini ochib bergan.

Metodikaning maqsadi – o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni bilim bilan uyg'un holda shakllantirish, milliy va umuminsoniy fazilatlarini o'zlashtirishga ko'maklashishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quv jarayonida ma'naviy qadriyatlarni barcha fanlarga singdirish; har bir darsda axloqiy g'oya yoki qadriyatni misol, adabiy matn yoki tarixiy shaxslar faoliyati orqali yoritish; o'quvchilarda axloqiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish. Tajriba Navoiy shahridagi 2 ta maktabda 9-sinf o'quvchilari ishtirokida 3 oy davomida o'tkazildi. Dastlab 40 nafar o'quvchi nazorat, 40 nafari esa tajriba guruhiga kiritildi. Tajriba davomida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tafakkuri maxsus savolnoma va kuzatuv jadvali orqali o'lchandi.

1-jadval: Metodikaning asosiy tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni
Fanlararo integratsiya	Har bir o'quv fanida axloqiy mazmunni kiritish (matematika, tarix, adabiyotda misollar orqali)
Faol ishtirok	O'quvchilarni muammoli vaziyat, rolli o'yin, tahlil va bahs jarayoniga jalb qilish
Milliy qadriyatlar asosida yondashuv	O'zbek xalqining ma'naviy merosi, buyuk allomalarning hikmatlari orqali ta'lim mazmunini boyitish
Refleksiya	O'quvchi o'z axloqiy fikrini tahlil qiladi, o'zgarishni baholaydi
Amaliyotga yo'naltirish	O'rganilgan qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish

2-jadval: Metodika bosqichlari

Bosqich	Mazmun	Amalga oshirish shakli
1. Tayyorlov bosqichi	O'quvchilarda axloqiy qadriyatlar haqida dastlabki tushuncha hosil qilish	Savol-javob, "fikr devori", interfaol muloqot
2. Integratsion dars jarayoni	Asosiy fanlarda axloqiy g'oyalarni singdirish	Misol: adabiyotda – vijdon; tarixda – adolat; biologiyada – mehnatsevarlik
3. Mustahkamlash bosqichi	O'quvchi o'z xulqini axloqiy me'yorlar bilan solishtiradi	Rolli o'yin, axloqiy dilemmalar tahlili
4. Refleksiya bosqichi	O'quvchilar o'zidagi o'zgarishni baholaydi	"Men qanday o'zgardim?" insho yoki so'rovnoma



Metodikani amalga oshirish jarayonida quyidagi vositalardan foydalanildi:

- axloqiy mazmunga ega matnlar, hikoyalar, maqollar;
- tasviriy materiallar (tarixiy shaxslar, allomalar hayoti);
- savolnoma va kuzatuv varaqalari;
- interfaol o'yinlar ("Halollik daraxti", "Vijdon mezon");
- baholash mezonlari (axloqiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tahlil qilish darajasi).

Metodika Navoiy viloyatidagi o'quvchilarda sinovdan o'tkazildi. Tajriba davomida jami 80 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tajriba boshlanishida va yakunida o'tkazilgan so'rovnoma va kuzatuv natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: **Tajriba natijalari**

Ko'rsatkich	Boshlang'ich holat	Yakuniy holat	O'sish foizi
Ma'naviy qadriyatlarni anglash	58%	84%	+26%
Axloqiy fikrlash mustaqilligi	52%	78%	+26%
Ijtimoiy faollik	49%	72%	+23%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida ma'naviy qadriyatlarni anglash ko'rsatkichi 58% dan 84% ga (+26%), axloqiy fikrlash mustaqilligi 52% dan 78% ga (+26%), ijtimoiy faollik esa 49% dan 72% ga (+23%) o'sgan. Barcha uchta ko'rsatkich bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi, bu esa qo'llanilgan integratsion metodikaning amaliy samaradorligidan dalolat beradi.

XULOSA

Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri tarixini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar har ikki sivilizatsiyada inson kamolotining asosiy mezon sifatida e'tirof etilgan. Sharqda insonning ma'naviy barkamolligi, axloqiy pokligi va jamiyat oldidagi mas'uliyati ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, G'arb pedagogik tafakkurida shaxs erkinligi, adolat va individual kamolot masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Konfutsiy ta'limoti, qadimgi tarixiy yodgorliklar hamda Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining merosi ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarining shakllanishida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan.

Olingan empirik natijalar ushbu nazariy asoslarning amaliyotda ham o'z tasdig'ini topishini ko'rsatdi – fanlararo integratsiyaga asoslangan metodika o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini sezilarli darajada oshirdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti hamda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Zamonaviy pedagogika sharoitida Sharq va G'arbning ilg'or tarbiyaviy tajribalarini uyg'unlashtirish, yosh avlodda insonparvarlik, vatanparvarlik, mas'uliyat va ma'naviy yetuklik fazilatlarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. // <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-3837.pdf>
2. Haqqul I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. – B.301-303.
3. Ismatullayeva N. Konfutsiy hayoti va Lun Yuy asari. – T.: TDSHI nashriyoti, 2013. – B.7.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Sharq matbaa konserni, 2009.
5. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – B.158-160.
6. Mavlonova A., Vohidova N.H., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010.
7. Navoiy Alisher. Mahbub-ul qulub. – T.: Badiiy adabiyot, 1966.
8. Nishonova Sanobar. Pedagogika tarixi. II-qism: Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
9. Ochilova B.M. Axloq falsafasi. // <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/06/Axloq-falsafasi-B.M.Ochilova.pdf>
10. Qoshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. Turkiy so'zlar devoni. 3 tomlik. – T.: Fan, 1967.
11. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1967.
12. Xoshimov K., Ochilov S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2010.
13. Yassaviy Ahmad. Shajarai saodat. Karomatlari. Hikmatlari. – Chimkent, 1992.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. – T.: Yulduzcha.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.